

UrDU Pedagogika fakulteti Musiqa ta'limi yo'nalishi 401- guruh talabasi Bekchanova Muharramning Musiqa o'qitish metodikasi fanidan "Xorijiy mamlakatlar musiqa ta'lim-tarbiya tizimlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari" mavzusida yozgan kurs ishiga Musiqa ta'limi kafedrası katta o'qituvchisi Kazakov Adilbek tomonidan

T A Q R I Z

UrDU Pedagogika fakulteti Musiqa ta'limi yo'nalishi 401- guruh talabasi Bekchanova Muharramning Musiqa o'qitish metodikasi fanidan "Xorijiy mamlakatlar musiqa ta'lim-tarbiya tizimlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari" mavzusida yozgan kurs ishi bilan tanishib chiqdim. Mazkur kurs ishida Xorijiy mamlakatlarda musiqa o'qitishning o'ziga xos yo'li, Koreyada ta'lim jarayoni, Bolgariyada musiqa o'qitishning mazmun va mohiyati, Vengeriyada musiqa tarbiyasi tuzimi, Yaponiya ta'lim tizimi, Angliyada musiqa o'qitishning maqsad va shakli, Rossiyada musiqa o'qitishning maqsad va shakli va Germaniyada musiqa o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikrlar yuritilgan.

Talaba Bekchanova Muharram kurs ishini yozishda mavzuga doir adabiyotlardan aniq va o'rinli foydalangan holda mavzuni to'la yoritgan.

UrDU Pedagogika fakulteti Musiqa ta'limi yo'nalishi 401- guruh talabasi Bekchanova Muharramning Musiqa o'qitish metodikasi fanidan "Xorijiy mamlakatlar musiqa ta'lim-tarbiya tizimlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari" mavzusida yozgan kurs ishidan san'at kollejarida, umumta'lim maktablarining Musiqa darslarida samarali foydalanish mumkin.

UrDU Pedagogika fakulteti Musiqa ta'limi yo'nalishi 401- guruh talabasi Bekchanova Muharramning Musiqa o'qitish metodikasi fanidan "Xorijiy mamlakatlar musiqa ta'lim-tarbiya tizimlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari" mavzusida yozgan kurs ishi ZioNET saytiga qo'yishga loyiq deb hisoblayman.

Taqrizchi:



Kazakov A.

**UrDU Musiqa ta'limi kafedrası
katta o'qituvchisi**

UrDU Pedagogika fakulteti Musiqa ta'limi yo'nalishi 401- guruh talabasi Bekchanova Muharramning Musiqa o'qitish metodikasi fanidan "Xorijiy mamlakatlar musiqa ta'lim-tarbiya tizimlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari" mavzusida yozgan kurs ishiga Urganch shahridagi 6-son maktabi musiqa o'qituvchisi Ismoilova Xurshida tomonidan

TAQRIZ

UrDU Pedagogika fakulteti Musiqa ta'limi yo'nalishi 401- guruh talabasi Bekchanova Muharramning Musiqa o'qitish metodikasi fanidan "Xorijiy mamlakatlar musiqa ta'lim-tarbiya tizimlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari" mavzusida yozgan kurs ishi bilan tanishib chiqdim. Mazkur kurs ishida Xorijiy mamlakatlarda musiqa o'qitishning o'ziga xos yo'li, Koreyada ta'lim jarayoni, Bolgariyada musiqa o'qitishning mazmun va mohiyati, Vengeriyada musiqa tarbiyasi tuzimi, Yaponiya ta'lim tizimi, Angliyada musiqa o'qitishning maqsad va shakli, Rossiyada musiqa o'qitishning maqsad va shakli va Germaniyada musiqa o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikrlar yuritilgan.

Talaba Bekchanova Muharram kurs ishini yozishda mavzuga doir adabiyotlardan aniq va o'rinli foydalangan holda mavzuni to'la yoritgan.

UrDU Pedagogika fakulteti Musiqa ta'limi yo'nalishi 401- guruh talabasi Bekchanova Muharramning Musiqa o'qitish metodikasi fanidan "Xorijiy mamlakatlar musiqa ta'lim-tarbiya tizimlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari" mavzusida yozgan kurs ishidan san'at kollejlarida, umumta'lim maktablarining Musiqa darslarida samarali foydalanish mumkin.

UrDU Pedagogika fakulteti Musiqa ta'limi yo'nalishi 401- guruh talabasi Bekchanova Muharramning Musiqa o'qitish metodikasi fanidan "Xorijiy mamlakatlar musiqa ta'lim-tarbiya tizimlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari" mavzusida yozgan kurs ishi ZioNET saytiga qo'yishga loyiq deb hisoblayman.



Ismoilova X.
Urganch shahridagi 6-son maktabi
musiqa o'qituvchisi



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

Bekchanova Muharram

5111100 – Musiqa ta'limi yo'nalishi bo'yicha

Musiqa o'qitish metodikasi va maktab repertuari fanidan

Kurs ishi

Mavzu: "Xorijiy mamlakatlar musiqa ta'lim-tarbiya tizimlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari"

Ilmiy rahbar:

Nurmatova M.A.

REJA:

Kirish

1. Xorijiy mamlakatlarda musiqa o`qitishning o`ziga xos yo`li
2. Koreyada ta`lim jarayoni
3. Bolgariyada musiqa o`qitishning mazmun va mohiyati
4. Vengeriyada musiqa tarbiyasi tuzimi
5. Yaponiya ta`lim tizimi
6. Angliyada musiqa o`qitishning maqsad va shakli
7. Rossiyada musiqa o`qitishning maqsad va shakli
8. Germaniyada musiqa o`qitishning o`ziga xos xususiyatlari

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

KIRISH

O`zbekiston Respublikasi mustaqilligining o`tgan 23 yillik davrida mamlakatimiz hayotining barcha jabhalarida o`shish sur`atlari yuqoriligi ta`minlandi. Mamlakat taraqqiyotining “o`zbek modeli” o`zining hayotiyiligini isbotladi. Xususan, fan va ta`lim - tarbiya sohasini rivojlantirish bo`yicha e`tiborga molik ishlar amalga oshirildi.

Bu borada Prezidentimiz I. A. Karimov «yoshlarimizni o`z mustaqil fikriga ega bo`lgan, barcha sohalarda dunyodagi tengdoshlari bilan bellasha- oladigan, biz boshlagan ishlarning munosib davomchilari, mard va jasur, komil insonlar qilib tarbiyalash - bu nafaqat katta baxt, ayni paytda bu avvalo o`zbek xalqining qadimiy shuhratini qayta tiklash, uning xalqaro maydondagi obro` - e`tiborini yanada yuksaltirish, rivojlangan davlatlar safidan munosib o`rin egallashining asosiy sharti va garovidir» - degan edi

Hozirgi kunda darsliklarning yangi avlodi yaratildi. O`quv dasturlari optimallashtirildi. Ta`lim sifati va samaradorligini oshirish uchun xorijiy mamlakatlarning ta`lim - tarbiya tizim tajribasi o`rganilib, optimal yo`llarini izlab, fikrlar va xulosalarni tizimga keltirdi. Bu aloqalarning maqsadi xorijiy tajribalarni o`rganish bilan bir qatorda masofaviy va elektron ta`lim shakllarini faoliyatga tatbiq qilish bo`yicha o`z tajribalarini boyitishdir. Natijada ta`limda pedagogik, axborot, kompyuter texnologiyalar qo`llab boshlandi. Bundan tashqari, barcha Oliy ta`lim muassasalarining zamonaviy kompyuterlar bilan jihozlanib, internetga ulangani yoshlarimizga o`z bilimini boyitish uchun zarur ma`lumotlarni olish imkonini bermoqda. Endilikda ularning chet ellardagi musiqiy ta`lim muassasalari bilan aloqa o`rnatishi, xorijdagi maorif musiqiy jarayoni bilan tanishishi va u erda o`qiyotgan tengdoshlari bilan o`zaro virtual fikr almashishi oddiy holga aylandi.

Yangi 2014 - 2015 o`quv yilida tajriba - tadqiqot ishlarining faol bosqichi boshlanadi. Tajriba - tadqiqot maydonlarida faoliyat ko`rsayotgan tadqiqotchi – o`qituvchilarimiz tajriba - tadqiqot ishlarining mazkur bosqichida ham samarali

mehnat qilib, o`quvchilarimizning o`quv fanlariga bo`lgan qiziqishlarini yanada orttiradilar.

Musiqqa dars sifati va samaradorligini yanada tiklash uchun bizlar xorijiy mamlakatlarda musiqqa ta`lim - tarbiyasi tizimini o`rganish va tahlil qilishni maqsad qilib qo`ydik. Ushbu maqsadga erishish uchun maxsus adabiyotlar va manbalar o`rganilib tahlil kilindi. Aytish joizki, har bir mamlakatning musiqqa tarbiyasi g`oyaviy - siyosiy jihatdan xalqning ijtimoiy tuzimiga xizmat qiladi. Har bir xalqning maorifida musiqqa tarbiyasi metodikasi pedagogikaning didaktik qonuniyatlariga va shu millatning musiqqa madaniyati, tili va madaniy an`analariga asoslanadi. Shu bilan birga musiqqa tarbiyasining tuzilishi, tizimi va ilmiy - metodik yutuqlari boshqa millatning ma`rifiy madaniyatiga ham ijobiy ta`sir etadi.

Xorijiy mamlakatlarda yagona o`quv reja va dasturga amal qilinmaydi. Davlat maktablari bilan birga shaxsiy maktablar, kollejlari va oliy ta`lim dargohlari mavjud bo`lib, ularda turlicha darajada estetik tarbiyani amalga oshirishda o`qituvchiga keng ijodiy erkinlik berilgan. O`qituvchi o`z davlatining maktab sharoiti, imkoniyatlari va o`quvchilarning bilim darajasiga qarab dasturga o`zgartirishlar kiritishi mumkin. Ta`lim va tarbiya jarayonida o`quvchilarda san`at orqali hayotni o`rganish va unga shaxsiy munosabat bildirish, ijodiy munosabatda bo`lish malakalarini rivojlantiradi. Musiqqa darslarida yuksak rivojlangan texnik vositalaridan keng foydalaniladi. O`quvchilar elektrorganlarda chalib kuylaydilar, turli faoliyatlarni (aytishuv, harakatlar, bir - biriga jo`rnavezlik qilishlarni) bajaradilar. Bunday asosiy maqsad o`quvchilarda ijodiy qobiliyatni ro`yobga chiqarishdan iborat.

Yunesko qoshidagi xalqaro musiqiy tarbiya jamiyati (ISME) o`z faoliyatini rivojlantirmoqda. Bu jamiyat o`z oldiga dolzarb va ezgu maqsadlarni qo`yib, butun jahonda bolalar va o`smirlarni musiqiy tarbiyalash, bu jarayonni yosh avlodni axloqiy, intellektual va estetik jihatdan shakllatirishda qudratli vosita sifatida o`rganadi.

Bu tashkilot faoliyatining asosiy shakllaridan biri xalqaro miqyosida o`tkazilayotgan anjumanlar bo`lib, unda kompozitorlar, etakchi tashkilotlar, amaliyotchi - pedagoglar, bolalar xor jamoalarining rahbarlari ishtirok etadilar.

ISME anjumanlari ikki yilda bir marta o`tkazilib, jahonning turli mamlakatlaridagi musiqiy tarbiya tajribalari bilan turli mamlakatlardagi musiqiy tarbiya tajribalari bilan to`la tanishish imkonini beradi.

Dunyoning juda ko`p mamlakatlarida bolalarga musiqiy tarbiyani berish, xor san`ati yordamida barkamol, mukammal rivojlangan shaxsni rivojlantirishda boy tajriba orttirilgan. Qator mamlakatlarda maktab hamda maktabdan tashqari tashkil qilingan o`quv jarayoni, uning shakl va usullari shubhasiz katta qiziqish uyg`otmoqda.

Jahonning ko`pgina mamlakatlarida yosh avlodga musiqiy tarbiya berish ishlari umumdavlat ahamiyatga ega bo`lib, shaxsni shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi.

1. Xorijiy mamlakatlarda musiqa o`qitishning o`ziga xos xususiyatlari

Xorijiy mamlakatlarda yagona o`quv reja va dasturga amal qilinmaydi. Davlat maktablari bilan birga shaxsiy maktablar, kollejlari va oliy ta`lim dargohlari mavjud bo`lib, ularda *musiqiy tarbiyani turli darajada amalga oshirishda o`qituvchiga keng ijodiy erkinlik berilgan*. O`qituvchi o`z davlatining maktab sharoiti, imkoniyatlari va o`quvchilarning bilim darajasiga qarab dasturga o`zgartirishlar kiritishi mumkin. Ta`lim va tarbiya jarayonida o`quvchilarda san`at orqali hayotni o`rganish va unga shaxsiy munosabat bildirish, ijodiy munosabatda bo`lish malakalarini rivojlantiradi. Musiqa darslarida yuksak rivojlangan texnik vositalaridan keng foydalaniladi. O`quvchilar elektrorganlarda chalib kuylaydilar, turli faoliyatlarni (aytishuv, harakatlar, bir - biriga jo`rnavoqlik qilishlarni) bajaradilar. Bunday asosiy maqsad o`quvchilarda ijodiy qobiliyatni ro`yobga chiqarishdan iborat.

Yunesko qoshidagi xalqaro musiqiy tarbiya jamiyati (ISME) o`z faoliyatini rivojlantirmoqda. Bu jamiyat o`z oldiga dolzarb va ezgu maqsadlarni qo`yib, butun

jahonda bolalar va o`smirlarni musiqiy tarbiyalash, bu jarayonni yosh avlodni axloqiy, intellektual va estetik jihatdan shakllantirishda qudratli vosita sifatida o`rganadi.

Bu tashkilot faoliyatining asosiy shakllaridan biri xalqaro miqyosida o`tkazilayotgan anjumanlar bo`lib, unda kompozitorlar, etakchi tashkilotlar, amaliyotchi - pedagoglar, bolalar xor jamoalarining rahbarlari ishtirok etadilar.

ISME anjumanlari ikki yilda bir marta o`tkazilib, jahonning turli mamlakatlardagi musiqiy tarbiya tajribalari bilan turli mamlakatlardagi musiqiy tarbiya tajribalari bilan to`la tanishish imkonini beradi.

Dunyoning juda ko`p mamlakatlarida bolalarga musiqiy tarbiyani berish, xor san`ati yordamida barkamol, mukammal rivojlangan shaxsni rivojlantirishda boy tajriba orttirilgan. Qator mamlakatlarda maktab hamda maktabdan tashqari tashkil qilingan o`quv jarayoni, uning shakl va usullari shubhasiz katta qiziqish uyg`otmoqda.

Jahonning ko`pgina mamlakatlarida yosh avlodga musiqiy tarbiya berish ishlari umumdavlat ahamiyatga ega bo`lib, shaxsni shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Har bir mamlakat o`z mezonlari asosida ta'lim tizimi tamoyillarini belgilaydi. Ana shu jihatdan turli davlatlarda ta'lim olish imkoniyatlari turlicha bo`ladi. Tizimga asos solinayotgan paytda mamlakatning tarixiy an'analari, bugungi kun talablari, mutaxassislariga bo`lgan ehtiyoj darajasi, iqtisodiy, ijtimoiy imkoniyat va qonuniyatlari inobatga olinadi.

Jahon mamlakatlari ta'lim tizimiga nazar tashlar ekansiz, ba'zida ibratli, gohida hayratlanarli holatlarga duch kelasiz. Shunday ta'lim tizimiga ega davlatlardan biri Lyuksemburgdir.

Bilasizmi, bu yerda oliy ta'lim muassasalari umuman mavjud emas. To`g`ri, mamlakatda 4 ta institut faoliyat ko`rsatadi. Ularning barchasi davlatga tegishli. Biroq ular haqiqiy ma'nodagi oliy akademik ta'lim beruvchi muassasalar hisoblanmaydi, balki ko`proq kasbiy ta'lim yo`nalishidagi institutlar vazifasini bajaradi.

Lyuksemburg ta'lim tizimi 1912 yildan buyon (shu yili tizimga asos solingan) o'zgartirgan. 16 yoshgacha bo'lgan barcha bolalar ta'lim olish uchun ro'yxatdan o'tgan bo'lishi lozim. O'qish jami 11 yil davom etadi. Bu muddat ichiga 2 yillik tayyorlov kurslari ham kiritilgan.

Xalq ta'limi tizimi 4-6 yoshli bolalar uchun mo'ljallangan maktabgacha muassasalardan boshlanadi. Keyingi bosqich esa boshlang'ich majburiy maktablardir. Ularda o'qish muddati 6 yil (6 -12 yosh). Mazkur bosqichda bepul ta'lim beriladi. Maktablar davlatga qarashli yoki xususiy muassasa bo'lishi mumkin. Bola 12 yoshida o'rta maktabga boradi va unda 3 yil tahsil oladi. Mamlakatda o'rta ta'lim umumiy va ikkinchi darajali texnik ta'limga bo'linadi. Shuningdek, o'rta maktab ta'limi klassik va zamonaviy litseylarda ham amalga oshiriladi. O'qish klassik litseylarda 7 yil, zamonaviy litseylarda 6 yil davom etadi. Bunday maktablar pulli asosda ta'lim berib, u yerda o'qish majburiy hisoblanmaydi. O'quv yili oktyabrda boshlanib, iyul oyida yakunlanadi. Kamida uchta chet tilini bilishadi. Majburiy maktabda ta'lim nemis tilida olib boriladi. O'rta maktabda esa darslar frantsuz tilida o'tiladi. Frantsuz tili xuddi shu tartibda majburiy maktablarda ham o'rgatiladi.

Aytish lozimki, xorijiy tillarni o'rganishda bolalar ham, kattalar ham davlat tomonidan birdek qo'llab-quvvatlanadi. Buning uchun Lyuksemburg tillar markazi doimiy xizmatda. Ushbu markazning oddiy til markazlari qatorida emasligini ta'kidlash lozim. U shunchalar mashhurki, muassasa barcha murojaat etuvchilarga ham «labbay» deyishga imkon topolmay qoladi. Markaz til o'rganish uchun zarur bo'lgan barcha qulayliklar, jumladan, bepul kompyuter ta'limini berish imkoniyatiga ega.

Davlat tomonidan ko'rsatilgan yordam hamda fuqarolarning intiluvchanligi samarasi o'laroq, mamlakat fuqarolarining deyarli har biri kamida 3 tadan xorijiy tilni o'zlashtirgan.

Yuqorida aytilganidek, Lyuksemburgda oliy o'quv yurtlari yo'q. 1969 yilda xorijiy universitetlarga o'qishga tayyorlovchi universitet markazi ochilgan. Mazkur markazda o'qishni yakunlagach yoshlar chet davlatlari oliy o'quv yurtlarining 2-

kursiga kirish imkoniyatiga ega bo'ladi. To'g'ri, bu yerda 1973 yilda asos solingan Mehnat universiteti kabi bir necha universitet yoki institutlar bor, ammo ularda to'la maxsus ma'lumot berilmaydi.

Mamlakatda bir necha kollej va konservatoriya bor. Shu bilan birgalikda shaharda 1798 yildan buyon ishlab kelayotgan Milliy kutubxona mavjud bo'lib, uning jamg'armasi g'oyat katta. Milliy muzey ham xuddi shu yerda joylashgan. Bundan tashqari, Tabiatshunoslar jamiyati va Buyuk gertsog instituti ham faoliyat ko'rsatadi. Ushbu institutda tarix, tibbiyot, tabiiy fanlar, adabiyot va san'at sektsiyalari mavjud.

Lyuksemburgda mavjud muhandis-texniklar yoki boshlang'ich maktab o'qituvchilari kurslari yoki 2 yillik amaliy kurslar bitiruvchilarining nufuzi nihoyatda baland. Ular uchun ishga joylashish yoki dunyoning biror boshqa mamlakatida o'qishni davom ettirish uchun hech qanday qiyinchiliklar bo'lmaydi. Ammo ular oliy ma'lumotli mutaxassislar hisoblanmaydi. Agar to'liq oliy ta'lim olish xohishi bo'lsa, u holda fuqarolar universitet ta'limining 1-kursini Lyuksemburgda o'qiydilar, keyin esa Frantsiya yoki Belgiyaning biror universitetiga o'tishlari mumkin. Ana shu tarzda Lyuksemburg fuqarolari akademik ta'limni xorijda oladilar. O'rta hisobda chegara ortida ta'lim oluvchilar soni 3,2 ming nafardan (2002) ortadi. Lyuksemburgliklar uchun oliy ta'lim olishda eng ma'qul ko'rilgan mamlakatlar - Belgiya, Frantsiya, Germaniya, Avstriya va Buyuk Britaniya.

Xo'sh, mamlakat fuqarolari nima asosda oliy ta'limni xorijda olish yoki u yerdagi o'qishni bir yo'la ikkinchi kursdan boshlash huquqiga ega bo'ladi? O'z rivojining asosiy kaliti va tayanch nuqtasi sifatida ta'lim sohasini ko'rgan Yevropa mamlakatlari Yevropa oliy ta'lim hududini yaratish uchun salmoqli ishlarni amalga oshirgan. 1998 yil 25 mayda qabul qilingan Sorbon deklaratsiyasi universitetlarning Yevropa madaniy qadriyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyatini ta'kidlab ko'rsatdi. Bu hujjat Yevropa oliy ta'lim Hududini yaratish imkonini berdi. Undan ko'zlangan maqsad qit'aning umumiy rivoji uchun malakali mutaxassislarni yetkazib berish bo'ldi.

Shuningdek, yagona ta'lim kengligini yaratish va oliy ta'lim tizimini uyg'unlashtirish yo'lida 1999 yil qabul qilingan Bolone deklaratsiyasi ham katta ahamiyat kasb etdi. Rasman Bolone jarayonida 35 ta a'zo mamlakatlar ishtirok etadi. Oliy ta'limning ikki bosqichli modelida akademik darajalarni qiyoslash, akkumulyatsiya (jamlash) va kreditlar transferti (ESTC - Kreditlar transferti bo'yicha Yevropa tizimi), ta'lim sifati kafolatlari sohasida hamkorlikni rivojlantirish, jumladan, akkreditatsiya va sertifikatlashtirish mexanizmlarining o'zaro tan olinishi deklaratsiyada nazarda tutilgan jarayonlar turkumidandir.

2.Koreyada ta'lim tizimi

Koreyaning zamonaviy ta'lim tizimi rasman Yaponiya mustamlakasidan ozod bo'lgan 1945 yildan boshlangan. Ammo kengroq qaraydigan bo'lsak, koreyslarda ta'lim tizimi 1894 yilgi islootlardan keyin yuzaga kelgan, deyish mumkin. 1881 yili Koreyadagi Choson xukumati mamlakat xavfsizligini kuchaytirish maqsadida maxsus armiya tuzadi va g'arbliklar harbiy san'atdan dars bera boshladilar. Bu o'z navbatida chet tili va boshqa fanlar ta'limini yuzaga kelishini ta'minladi.

Garchi 1882 yili maxsus qo'shin uchun darslar to'xtab qolgan bo'lsa-da, bir qancha amaliy fanlar darsi davom etaverdi. Bu davrda asta-sekinlik bilan Gvangxevon, Bejexakdan, Ixvaxakdan kabi shaxsiy ta'lim muassasalari ham vujudga kela boshladi va keyinchalik universitetlar uchun asos bo'lib xizmat qildi. 1894 yili shaxsiy bilim maskanlari birlashtirilib, mamlakat ta'lim tizimini boshqaruvchi institut tashkil etildi. Shu bilan birga 1895 yildan boshlang'ich maktablar va maktab uchun kadrlar tayyprlaydigan pedagogika maktablari tuzildi. Bundan tashqari bir qancha xususiy maktablar ochilib, 1900 yilda ular faoliyatini tartibga solib turadigan "Xususiy maktablar to'g'risidagi qonun" qabul qilindi. 1910 yili Koreya va Yaponiya o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq Koreya Yaponiyaning rasman mustamlakasiga aylantirildi. Natijada bu mamlakat ta'lim tizimiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Yapon mustamlakachilari Koreyaning ta'lim tizimini keskin o'gartirish yo'lidan bordi va xususiy maktablar faoliyati cheklab qo'yildi. Bu davrda 1911 yil 23 avgsutda qabul qilingan "1- Choson ta'lim buyrug'i" amal qildi. Unga ko'ra, koreys va yapon fuqarolarining farqli ta'lim siyosati olib

borildi. Ya'ni, maxalliy xalq faqat 4 yil mobaynida boshlang'ich ta'lim olar, o'rta va oily ta'lim berilmas edi. Bu yapon mustamlakachiligining uzoq o'ylangan rejalari qatoriga kirardi. Ammo 1919 yili boshlangan norozilik harakatlari oqibatida Yaponiya xukumati biroz yon berishga majbur bo'ldi va buyruqqa o'zgartirish kiritib, boshlang'ich ta'lim 4 yildan 6 yilga uzaytirildi.

1922 yil 4 fevralda "2-Choson ta'lim buyrug'i" qabul qilindi. Bu buyruqqa ko'ra, ta'lim muddatlari uzaytirildi. Ya'ni, oddiy maktablarda ta'lim 6 yil, ayollar maktablarida esa 5 yil etib belgilandi. Shuningdek, asta-sekinlik bilan universitetlar ham paydo bo'la boshladi. Jumladan, 1924 yili Kyongson Davlat Universiteti ochildi. yili Xitoy-Yaponiya urushi boshlanishi munosabati bilan mustamlka Koreyada nazorat yanada kuchaytirildi. Oddiy maktablar va boshlang'ich maktablar,yuqori va o'rta maktablar birlashtirildi. Koreys tili fanlari kamaytirilib, imperiya xalq demokratiyasi fani kiritildi.

1943 yil 3 avgustda "4-Choson ta'lim buyrug'i" imzolandi va yapon mustamlakachiligining ta'lim soxasidagi zo'ravonligi kuchadyi. Jumladan, o'rta va yuqori makatbalarda ta'lim 4 yilgacha kamaytirilib, koreys tili fani dasturdan olib tashlandi. Uning o'rniga yapon tili darslari kiritildi. Koreyani yoppasiga savodsizga aylantirish siyosati natijasi o'laroq, 1944 yilgi Koreya Umumiy Arxiv qo'mitasi ma'lumotlariga qaraganda o'sha paytda Koreyaning savodxonlik darajasi bor-yo'g'i 13,8% ni tashkil etgan.

1945 yili Ikkinchi Jahon urushi bilan birga Koreyadgi Yaponiya mustamlakachiligi ham tugadi. Endilikda Koreada tabiiyki boshqa soxalar qatori ta'lim tizimini o'zgartirish vazifasi turardi. Eng avvalo "Ta'limni rivojlantirish qo'mitasi" tashkil etildi va qo'mita oldiga darsliklar yaratish majburiyati qo'yildi. Ta'lim tizimi tadqiq etilishi davom ettirilib, axloq, etika, texnikaga oid fanlar kiritildi. 1963 yillardan boshlab esa ta'lim tizimida tabiiy va ijtimoiy fanlarga e'tibor kuchaydi. 1981 yili Prezident Chon Du Xvan mamlakatda shaxsiy ta'lim berish va xususiy ta'lim maskanlari faoliyatini qonunan ta'qiqlab qo'ydi. Lekin maktabda mustaqil shug'ullanish uchun imkoniyatlar yaratib berdi.

1992 yilga kelib esa boshlang'ich maktablar faoliyati yanada rivojlanishi uchun xukumat tomonidan bir qancha imtiyozlar yaratildi. Zamonaviy Koreya ta'lim tizimida boshlang'ich maktablarning roli muhim. Koreyada boshlang'ich ta'lim uchun o'quv yilida 1 martga qadar 6 yoshdan yuqori bo'lgan bolalar qabul qilinadi. Lekin 5 yoshli bolalar ham o'qishga kirishga huquqli bo'lib, buning uchun maktab mas'ul shaxsining ruxsatnomasini olishi lozim bo'ladi. O'quv yili esa 1 mart Koreya respublikasida davlat bayrami munosabati bilan 2 martdan boshlanadi. 6 yil davom etadigan boshlang'ich ta'lim majburiy etib belgilangan. Boshlang'ich ta'limda 1 yil ikki semestr ga bo'lingan holda olib boriladi. Boshlang'ich ta'limdan keyingi "zinapoya" vazifasini o'rta ta'lim bajaradi. O'rta ta'lim Koreya respublikasida 3 yil davom etadi. O'rta ta'lim ham majburiy bo'lib, bir o'quv yili 1 martdan keyingi yil mart oyiga qadar davom etadi. Darslar 45 daqiqadan etib belgilangan bo'lib, bir yilda 1222 soatni tashkil etadi. O'rta ta'lim maktablarida davlat tili, axloq, ijtimoiy fan, matematika, jismoniy tarbiya, musiqa, san'at, chet tili kabi 10 ga yaqin fanlar o'qitiladi.

Shuningdek, o'rta maktabda o'quvchi uchun tanlov fanlar mavjud. Bular qatoriga axborot, chet tili (ko'pincha nemis, fransuz, ispan, xitoy, yapon, rus, arab tillari) kabilarni kiritish mumkin. O'rta maktab tugatilgach yuqori maktablarda ta'lim davom ettiriladi. Yuqori maktablar bir necha turlarga bo'linadi: davlat yuqori maktablari (Koreya Ta'lim va Texnika fanlari vazirligi, Madaniyat, Jismoniy tarbiya va sayyohlik vazirligi boshqaradi), Umumiy yuqori maktablar (Har bir viloyatdagi yuqori tashkilotlar tomonidan boshqariladi), xususiy yuqori maktablar. Shuningdek, yuqori maktablar o'qitish fanlariga ko'ra ham bir qancha turlarga bo'linadi: umumiy maktablar, ixtisoslashtirilgan maktablar (qishloq xo'jaligi, sanoat, dengiz xo'jaligi, axborot), maxsus maktablar (litsey shaklidagi maktab), texnika maktablari, chet tili maktabi, jismoniy tarbiya maktabi, san'at maktablari. Koreya Respublikasida Ta'lim vazirligi maxsus tashkil etgan yuqori maktablar ham bor. Bular asosan qishloq xo'jaligi, baliqchilik, sanoat, xalqaro tillarga ixtisoslashgan bo'ladi.

3. Bolgariyada musiqa o`qitishning maqsad va shakli

Bolgariyada musiqa darslari, o`quv rejasiga muvofiq, maktabni birinchi sinfidan to`qqizinchi sinfga qadar o`tkaziladi, 10 - 11 sinflarda esa, ixtiyoriy mashg`ulotlar tarzida haftada ikki soatdan olib boriladi. Birinchi sinfda, musiqa darsiga haftada 1 soat, 2-6 sinflarda esa ikki soatdan ajratiladi. Birinchi sinf-tayyorlov sinfidir. Bunda bolalar kuylarni yodlab qo`shiq aytishni o`rganadilar, musiqa sadolari jo`rligida davrada o`ynab, kuylaydilar.

Ikkinchi sinfdan boshlab o`quvchilar darsda musiqa savodini va qo`shiq aytishni o`rganadilar. Bolgariyadagi ommaviy musiqiy tarbiyaning asosi-bu xalq qo`shiqlaridir. Bolgar xalq musiqasi o`ziga xos usul, ohang va boshqa xususiyatlarga ko`ra hozirgi zamon yoshlarining musiqa ehtiyojlarini qondira olish imkoniyatiga egadir. Bolgariyada asosiy diqqat-e'tibor ommaviy havaskorlik jamoalari - folklor ansambllariga qaratilgan.

Ularning faoliyatida xalq ijodi namunalari milliy ijrochilik uslubiga yaqin ko`rinishlarda namoyon bo`ladi. Xalqchilik ruhida tarbiyalashga xizmat qilayotgan bolalar va yoshlarning qo`shiq va raqs xalq ansambllari ma'naviy-ahloqiy tarbiyasi va badiiy-emotsional ta'sirning vositalaridir. Bolgar xalq qo`shig`ining boyligini egallash, uning o`ziga xos ohang ko`lamini o`zlashtirish, bolalarda musiqiy tasavvur hamda ijro malakalarini egallashga ko`maklashadi, milliy hamda jahon mumtoz musiqa asarlarining go`zallik va boyliklarini baholashga imkon beradi. Bolgariya ommaviy musiqa ta'limining milliy uslubiyati, uning bolalarda musiqaviy ijrochilik, ritmik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan usullari musiqiy tarbiyaning dastlabki bosqichida o`quvchining bajiha va boshqa ijodiy harakatlarini rag`batlantiradi.

Bolgariya musiqa ta'limi tizimida 1923 yilda Boris Trichkov tomonidan ishlab chiqilgan «Stolbitsa» (ustun) metodi keng tarqaldi. Oddiy, ommabop, qiziqarli bo`lgan «stolbitsa» usuli, ayniqsa umumta'lim maktab bolalari bilan ishlashda katta yordam bermoqda. Boshlang`ich sinflarda musiqa darsni barcha o`quv fanlaridan mashg`ulot olib boradigan pedagoglar o`tkazadilar, Ular gimnaziyani bitirgach, muallimlar institutida ta'lim oladilar.

Muallimlar institutida o`qish muddati uch yil. 5-8 sinflarda ashula darsini, ikki o`quv fani (masalan, til va ashula) bo`yicha pedagogika institutining maxsus fakultetida ta`lim olgan o`qituvchi o`tadi. 9-11 sinflarda esa, konservatoriyaning musiqiy nazariya fakulteti qoshida tashkil etilgan maxsus pedagogika bo`limlarining bitiruvchilari olib boradilar. Ularning o`qish muddati to`rt yil. O`quv dasturlarida ko`rsatganidek, musiqa darslari asosini guruhli kuylash va musiqa cholg`ularida ijro etish tashkil etadi. Maktabdagi o`quv jarayoni darsliklar va o`qituvchilarga mo`ljallangan uslubiy qo`llanmalar bilan ta`minlangan bo`lib, bu narsa, albatta, ommaviy musiqiy tarbiyani amalga oshirishda muhim rol o`ynaydi.

Bolgariyada xor madaniyatini rivojlanishiga Sofiya o`smirlar saroyining «Bodrasmena» bolalar xor jamoasi katta hissa qo`shdi. Jamoa 1947 yilda tashkil topgan. Uzoq yillar mobaynida bu jamoaga Bolgariya xalq artisti, professor Boncho Bochev rahbarlik qilgan edi. Xor jamoasi tarkibida 380 a`zosi bo`lib, u katta va kichik yoshdagi bolalar guruhlari 100 kishilik kontsert guruhidan iborat. Mazkur jamoasi ijro dasturiga murakkab ko`p ovozli, turli janr va uslubdagi asarlar kirgan. Bolalar va o`smirlar havaskor xor maktab-studiyasi bolalar xor jamoalarining zamonaviy ko`rinishi sifatida yosh ijrochilar uchun ma`lum professional istiqbollari ochib beradi.

Shunday jamoaning muntazam kontsert faoliyati, havaskor xor - jamoaning xor maktabiga aylanishidagi muhim shat-sharoitlaridan biridir. Bolalar va o`smirlar xor maktablari, ushbu maktablarda ta`lim olayotgan o`quvchilar professional xor jamoalarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday xor jamoalari negizida-turli xil repertuarga ega bo`lgan kamer, madrigal, katta kontsert jamoalari shakl topishi mumkin.

B.Bochevning «Bodro smena» xor jamoasining ish tajribasini har bir bolalar xor jamoasiga tadbiq etish mumkin. Bolalar va o`smirlar havaskor xor maktablarini mustahkamlash zamon tarablariga javob beradigan, mukammal tashkiliy-o`quv shakllarini vujudga keltirish mumkin.

4.Vengeriyada musiqa tarbiyasi tuzimi

Vengeriyada musiqiy tarbiya sohasida erishilgan asosiy yutuqlar zamonaviy venger musiqasining asoschilaridan biri, kompozitor, xalq og`zaki ijodi bilimdoni, musiqashunos, pedagog *Zoltan Koday* (1883-1967) nomi bilan bog`liqdir. Bolalarning musiqiy tarbiya sohasidagi o`zining faol va sermahsul faoliyatini Z.Koday 1920-yillardan boshladi. Z.Kodayning bolalar musiqiy tarbiya tizimi ommaviylik tamoyiliga asoslangan.

Buyuk alloma xor jamoasida qo`shiq aytish hammaga ham mumkinligini alohida ta`kidlagan, keng ommani xor ijrochiligiga jalb etib, bu ishga alohida diqqat va e`tiborni talab qildi. Uning butun musiqiy ta`lim jarayoni xalq kuylariga asoslangan. Koday ommaviy venger maktabiga «Tonika-sol - fa» usulini kiritdi. Uning g`oyalari ikkinchsi jahon urushidan so`ng ommalashib ketdi. Koday metodi bu yaxlit tizim bo`lib, relyativ (nisbiy) solmizatsiya, kuylayotgan o`quvchilarga qo`l harakati yordamida beradigan ko`rsatmalar, venger xalq qo`shig`i, musiqani chuqur o`rganishga yo naltirilgan umumta`lim maktablari, jo`rsiz guruhli kuylashdan iborat.

Unutmaslik kerakki, Koday metodi haqida gap ketganida, so`z musiqiy tarbiya kontseptsiyasi haqida, kni hayotga tadbiiq etish yo`llari to`g`risida bormoqda. Bularni Z.Koday turli manbalardan olib, venger musiqasi xususiyatlariga moslashtirdi. Guruhli kuylash Vengeriyada, haqiqatdan, umumxalq jarayoni bolib, bunga musiqa savodxonligi nota bo`yicha qo`shiq aytaolish yordam beradi.

Z.Kodayning «2000 yilga kelib har bir umumta`lim maktabini bitirgan o`smir notani erkin o`qiy oladi» - degan orzusi amalga oshmoqda. Vegeriyada musiqiy tarbiya yuqori darajadadir. Bu mamlakatdagi umumta`lim maktab tizimining asosi sakkiz-yiilik to`liqsiz o`rta maktab bo`lib, uni bitirgan o`quvchilar to`rt sinflik gimnaziya o`tadilar. Birinchi sinfda bolalar haftada ikki mart 0,5 soatdan, ikkinchi-yettinchi sinflarda esa haftada ikki soat «Musiqqa» o`quv fani bilan shug`ullanadilar. Bundan tashqari har hafta ikki soat orkestr mashg`ulotlariga ajratiladi.

Uchinchi-to`rtinchi sinflarda o`quvchilar musiqa adabiyoti bilan tanishish va birorta musiqa cholg`usini o`zlashtirish imkoniyatiga ega bo`ladi. Umumta`lim maktablari orasida musiqa-qo`shiqchilik to`liqsiz o`rta maktablari, ya`ni musiqani chuqur o`rganishga qaratilgan umumta`lim maktablari keng joriy etilgan. Ularda birinchi - to`rtinchi sinf o`quvchilari haftada olti soat, beshinchi-yettinchi sinflarda esa to`rt soat musiqa va ikki soat xor mashg`ulotlari bilan shug`ullanadilar.

Maktablarda shuningdek, fortepiano, skripka, puflama musiqa cholg`ulari sinflari mavjud. Bunday maktablardagi sinflarda o`quvchilar soni umumta`lim maktab sinfidagi bolalar soniga nisbatan kamroq, ya`ni 26 o`quvchidan ortmaydi. Bundan tashqari, ularda umumta`lim yo`nalishdagi o`quv fanlarining soni ham barcha o`quv fanlaridan bilim berayotgan o`qituvchi musiqa darsini ham o`tadi. Beshinchi - sakkizinchi sinflarda bu darslarini musiqa mutaxassisi olib boradi. Bolalarning musiqa savodini chiqarishda ustoz tomonidan qo`l harakatlari, maxsus imo - ishoralar keng qo`llaniladi.



Relyativ solmizatsiyani chuqur o`rgangandan so`ng, o`quvchilar muloqot tizimiga o`tadilar. Musiqa ta`limini berish, shu jumladan musiqa o`quvchini rivojlantirish uslubiyati, asosan, bolalar ongining o`ziga xos tomonlarini hisobga olgan va ularga rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Umumta`lim maktablarida fortepiano, fleyta, yog`och tsimbala va ayrim urma cholg`ularidan foydalaniladi.

Koday tizimi ayniqsa, musiqani chuqur o`rganishga yo`naltirilgan umumta`lim maktablarida o`zining yorqin ifodasini topmoqda. Har

kungi musiqa darslari bolalarda usullarni ajrata bilish tajribasini, xotira, his-tuyg`ularni rivojlantiradi. 14 - 18 yoshdagi o`quvchilar ta`lim oladigan gimnaziyalarda musiqa tarixi fani o`rganiladi, barcha janr, uslub va davrdagi musiqa asarlari eshitaladi, shuningdek, sinfdan tashqari faoliyat ko`rsatadi. Vengeriyada maxsus musiqa ta`limi beradigan gimnaziyalar ham mavjud. Bunday gimnaziyalar bitiruvchilari, aksariyat hollarda, boshlang`ich sinf musiqa o`qituvchilari bo`lib ishlaydilar. Shuningdek, Vengeriyada bir nechta musiqa bilim yurtlari ham mavjud. Mazkur o`quv yurtlarida oquvchilar umtimta`lim fanlari bilan birga biror musiqa cholg`usini, solfedjio, garmoniya, guruhli kuylashni o`rganishadi.

Gimnaziya bitiruvchilari o`qishni (t`lim olish muddati uch yildan besh yilgacha bo`lgan) F.List nomidagi Musiqa akademiyasida davom yettirishlari mumkin. Uch yillik kurslarda umumta`lim maktablari uchun solfedjio, qo`shiq, biror musiqa cholg`u ijrochiligi bo`yicha mutaxassis-o`qituvchilar tayyorlanadi. Besh yillik ta`lim esa oliy malakali o`qituvchi va ijrochi-artistlarni tayyorlaydi. Bundan tashqari, Vengeriyada yuqori sinf musiqa o`qituvchilarni tayyorlaydigan to`rt yillik oliy o`quv yurtlari mavjud bo`lib, bu yerda talabalar muayyan musiqa ixtisosligi (masalan, musiqa va tarix, musitqa va til va boshqalar) ni ham egallaydilar.

Ta`kidlash lozimki, Z. Koday tizimi Vengeriyadagi musiqa ta`limi va tarbiyassining barcha bosqichlarida joriy etilmoqda; Vengeriya musiqashunos-pedagoglarining tajribasi dunyoning ko`pgina mamlakatlarida, jumladan, O`zbekistonda ham musiqashunos va pedagogika mutaxassislari tomonidan katta qiziqish bilan o`rganilmoqda.

5. “Yaponiyada musiqa o`qitishning o`ziga xos bo`lgan o`rni”

Yaponiya – Sharqiy Osiyoda, Tinch okeandagi orollarda joylashgan davlat. Uning hududida 6,5 mingga yaqin orol bor. **Eng yirik orollari:** Xokkaydo, Xonsyu, Sekoku va Kyusyu.

Yaponlar o`z davlatlarini “*Nixon*”, “*Nippon*” deb atashadi. Uning ma`nosi “Kunchiqar mamlakat” deganidir.

Maydoni 377,8 ming kv.km.

Aholisi 127 mln. 960 ming kishi (2011 y). Aholisi bo'yicha dunyoda 10 o'rinda turadi.

Poytaxti – Tokio shahri.

1992 yilda Yaponiyaning Toshkentdagi **elchixonasi** o'z faoliyatini boshlagan.

Davlat boshqaruvi konstitutsion parlamentar monarxiyaga asoslangan. Konstitutsiyaga ko'ra, Yaponiya imperatori davlatni boshqarishda Vazirlar Mahkamasining qarorlariga tayanadi. Barcha davlatlararo rasmiy uchrashuvlarda imperator davlat boshlig'i sifatida qatnashadi.

Akixito 1989 yildan beri Yaponiya imperatori bo'lib kelmoqda.

Maktablar quyidagicha bo'lingan:

1. Boshlang'ich maktab - 6 yil

2. O'rta maktab- 3 yil

3. Katta maktab- 3 yil

O'quv yili aprel oyidan boshlanadi. Boshlang'ich hamda o'rta maktab barcha uchun majburiy hamda bepuldir. *Boshlang'ich maktab o'quvchilari (1-6 sinflar)* uchun uyga vazifa berilmaydi. Biroq *o'rta (7-9 sinflar)* va *oliy maktab (10-12 sinflar)* o'quvchilari uchun ko'p uy ishi beriladi.

Bog'cha

Yaponiyada bolalarni 6 yoshga to'lishi bilan maktabga berishadi. Unga qadar ular bog'chada ta'lim-tarbiya olishadi.

Boshlang'ich maktab (1-6 sinflar)

Boshlang'ich maktablarda odatda bir kunda 3 ta dars bo'ladi. Kamdan kam hollarda 4 ta dars bo'lishi mumkin. Maktabda darslar odatda 8:30da boshlanadi. Har dushanba kuni "lineyka" bo'ladi. Boshlang'ich maktablarda darslar 45 daqiqadan iborat. Ushbu maktablarda o'quvchilar uchun uyga vazifalar berilmaydi.

O'rta maktab (7-9 sinflar)

O'rta maktabda yuqoridagi fanlarga qo'shimcha ravishda yana ingliz tili va bir qancha maxsus fanlar qo'shiladi. Ushbu fanlarning soni maktablarga qarab

turlicha bo`ladi. Dars 50 daqiqa davom etadi. Bir kunda 6 tagacha darslar bo`ladi. Maktab formasi majburiy hisoblanadi.

Oliy maktab (10-12 sinflar)

Yuqori maktabda fanlar birmuncha boshqacharoq taqsimlangan. O`quvchilarga oliy maktabda ko`proq maxsus ixtisoslashgan fanlar o`qitiladi. Dars 50 daqiqa davom etadi. Bir kunda 6 tagacha darslar bo`ladi. Maktab formasi majburiy hisoblanadi.

Ilk bora ushbu maktablar Tokioda XVII asrda paydo bo`lgan. Maktabda 10 ga yaqin bolalar tahsil olgan. Bir necha yillar avval u erda faqatgina universitetlarga kirish uchun o`qilardi, endilikda esa u erga hatto bir qator **kollejlarga kirish** uchun o`qishga kelishmoqda.

6. Angliyada musiqa o`qitishning maqsad va shakli

Angliya maktablarida, AQSh va boshqa burjua mamlakatlari qatori, yagona dastur va uslubiyatning yo`qligi sababli maktablardagi musiqiy tarbiya ishlarining ahvoli turli saviyadadir. Ijobiy misol tarikasida 1969-1970 yillarda Britaniya radio korporatsiyasining radio orqali 6-7 yoshdagi bolalar uchun tashkil etilgan 10 minutli musiqa eshittirishlarini keltirish mumkin. Bu eshittirishlardan ko`zda tutilgan maqsad-bolalarning musiqa cholg`ulari ijrochiligiga xohishlarini uyg`otish bo`lgan: bolalar radio eshittirish jarayonida musiqani ijro etishlari lozim bo`lgan keyinchalik, bu dasturlar magnit tasmalariga yozilib, maktablarga, ulardagi «Musiqa burchaklari» ga jo`natilgan.

■ Hozirda Angliya maktablarida ko`proq **Dj.Kerven** (1816-1880) tomonidan ishlab chiqilgan, reletiv tizimiga asoslangan o`qitish usullari qo`llanilmoqda. Angliyada boshlang`ich maktab o`qituvchilarni o`rta maxsus o`quv yurtlari-ikki yoki uch yillik kollejlarda tayyorlaydi. Milliy musiqa maktabi, Kirollik musiqa akademiyasini bitirgan musiqachilar uchun 1 yillik maxsus pedagogik kurslar tashkil etilgan. O`rta maktab musiqa muallimlarini universitetlarning musiqa pedagogika fakultetlari tayyorlaydi. Ularda o`qish muddati 4 yilni tashkil etadi.

Universitetlar o`rta maktab uchun universal musiqa o`qituvchini tayyorlashni o`z oldiga maqsad qilib qo`yganki, o`qituvchi nafaqat xor jamoasiga rahbarlik qilish, shuningdek, orkestrni boshqarish, musiqa va ashula ansamblida mashg`ulot olib borish, bolalarni musiqiy cholg`uda ijro etishga o`rgata bilishi lozim. Buyuk Britaniyada boshlang`ich sinflarda 5 yoshdan 11 yoshgacha bo`lgan bolalar o`qiydilar. Barcha o`quv fanlarini bitta o`qituvchi olib boradi.

Boshlang`ich maktabni bitirgach, bolalar gumanitar yoki texnik yo`nalishga asoslangan o`rta maktablarga o`tdilar. Bularda musiqa ta`limiga ko`proq e`tibor beriladi.

7. Rossiyada musiqa o`qitishning maqsad va shakli

Rossiyada musiqiy tarbiya jarayoni XIX asrning birinchi yarimida jamiyatning ijtimoiy qarama- qarshiliklarning murakkab sharoitlarida vujudga keldi, bu narsa, ta`limning mazmuni va usullari, o`qitish ishlarini tashkil qilish shakllarida o`z ifodasini topdi. Ta`limning ikki tizimi mavjud edi:

1-tizim keng xalq ommasiga mo`ljallangan bo`lib, 3-4 yillik bir bosqichdagi yoki 5-6 yillik ikki bosqichdagi boshlang`ich maktab va keyinchalik hunar maktablari, quyi texnik yurtlari bilan savdo maktablaridan iborat edi, o`quvchilarga boshlang`ich va o`rta malakalarni berar edi.

2- tizim- o`rta va oliy ta`lim bo`lib, asosan zodagonlar, diniy arboblarning bolalariga mo`ljallangan edi; ulardan birinchi yo`nalish- gimnaziya, real va tijorat bilim yurtlari, kadetlar maktabi, diniy seminarilar o`g`il bola uchun ikkinchisi esa qizlaruchun bilim hajmi kamaytirilgan o`quv gimnaziyalar edi.

Ushbu davrda nizomlarida musiqa majburiy o`quv fanlari qatoriga qo`shilmaygan, ammo imtiyozli o`quv yurtlaprida badiiy iste`dodlarini rivojlantirishga katta diqqat e`tibor qaratilgan edi. Kishloq yoki shahar xalq maktablarida musiqiy tarbiya umuman yo`q edi, bor joyda esa, asosan diniy aytimlar bilan bog`lik bo`lib, ulardan iborat paytida foydalanilar edi. Xalq ommasiga mo`ljallangan maktablar soni favqulodda kam edi. Mavjud ta`limning o`zi past darajada bo`lib, asosan o`qish, yozish va hisoblash o`rgatilar edi. Musiqa mashg`ulotlarida esa asosan diniy- ahloqiy tarbiya targ`ib qilinardi. Xalq

maktablaridagi qo`shiqslarning asosiy homiysi- sinod (pravoslav cherkovning oliy idorasi) edi.

Xalq maktabiga xos bo`lgan asosiy uslub – A. Karasev uslubi edi. Uning tizimi jiddiy bo`lib, o`quv materiallari bosqichma- bosqich murakkablashtirilgan, ammo unda bolalarning istaklari, qiziqishlari hisobga olinmas edi, bu tizimda quruq yodlash va rasmiyatchilik yaqqol ko`zga tashlanar edi.

1860- yillarda jamiyat hayotida boshlangan umumiy yuksalish musiqiy tarbiya sohasida ham ma`lum o`zgarishlarga olib keldi. Bu borada Rossiyada ilk bepul musiqa maktablarining tashkilotchilari M.Balakirev va G. Lomakinlarnig faoliyati katta rol o`ynagan.

XIX asr Rossiya ilg`or pedagog – uslubiyotchilaridan A. Karasev, S. Miropolskiy, D. Zarin, A. Maslov, N. Bryusova, B. Yavorskiy, V. Shatskaya, M. Rumer kabi noimlarni keltirish mumkin. Ular musiqa ta`limi hamma uchun majburiy bo`lishi kerak, deb hisoblangan. Shuningdek, PEm shahrida “Qo`shiqchilar kursi”ni tashkil qilgan A. Gorodtsovning faoliyatini eslatish kerakki, bu kurs ommaviy maktab (aksariyat - qishloq maktabi)lari musiqa o`qituvchisining o`chog`i bo`lib, ko`zga ko`rinarli natijalarga erishgan edi. 1905 yilda tashkil etilgan Moskva xalq konservatoriyasiga mashhur rus kompozitori, pedagog va musiqa nazariyotchisi S. Taneev boshchilik qildi. Bu o`quv yurtidagi ta`lim tizimi musiqa fanlarining ko`plarini o`z ichiga olgan bo`lib, asosini xor qo`shiqchiligi tashkil qilgan edi. Moskva xalq konservatoriyasi o`ziga xos laboratoriya bo`lib, bu yerda musiqiy tarbiya sohasida vujudga kelgan g`oyalar amaliyotga tadbiiq etilgan. Musiqa pedagogikasida Shatskiylar nomi ham ko`pchilikka ma`lum. Ular “Bardam hayot” (Bodraya jizn) bolalar koloniyasini tashkil etishdi.

Bu koloniyadagi musiqiy tarbiya uslubi shu darajada o`ziga xos va ko`pqirralik, chuqurki, o`sha davrda u tez shuhrat qozondi va bugungi kunga qadar pedagog va tadqiqotchilarda qiziqish uyg`otmokda.

Shu yillarda umumta`lim maktablarida taniqli kompozitor, pedagog, musiqa va jamoat arbobi, musiqachi – targ`ibotchi *Dmitriy Borisovich Kabalevskiy* (1909-1982) o`zining eksperimental - pedagogik tajribalarini boshlaydi.

Dmitriy Borisovich Kabalevskiy ishlab chiqqan tarbiya tizimida ichki aloqalar birligi mezoni asosiy o`rin tutadi. Uning fikricha darsning tarkibiy mushtarakligi mashg`ulotlar izchilligining asosini tashkil etishi kerak. Birlilik mezoni bilan bir qatorda, dasturda, umumlashtirish qoidasiga ham muhim o`rin ajratilgan. Ta`kidlash lozimki, bolalar bilim egallashida “xususiylikdan umumiylikka” formulasi “umumiylikdan xususiylikka” qoidasi bilan almashtirilgan.

Dmitriy Borisovich Kabalevskiy tizimining asosida “uch kit” ya’ni qo`shiq, raqs, marsh turadi. Bu ishda oddiy janrlar bolalar uchun musiqa haqida tushunchalarning shakllanishida birinchi qadamdir. Musiqiy asar orqali ya’ni qo`shiq, raqs, marsh janrida yozilgan asarlarni eshitib, ularni farqlash, aniqlash, tinglaganda fahmlay olishini maqsad qilib qo`ygan.

Keyingi bosqichda ushbu tushunchalar chuqurlashtiriladi, ya’ni raqssimon, marshsimon, qo`shiqsimon asarlar bolalarga eshittirilib, ular haqida erkin fikr yuritish malakalari rivojlantirilishi maqsad qilib qo`yiladi.

Umuman, Dmitriy Borisovich Kobalevskiyning ishlab chiqqan musiqiy o`qitish tizimi, musiqiy asarlar orqali hamma bilim va malakalarni bolalarga taqdim etish asosida tuzilgan. Shu bilan birga pedagogikaning muammoli o`qitish tizimi Kabalevskiyning tizimida asosiy vositalardan biri bo`lib qolgan. Ya’ni bolalar o`zlari fikr yuritib muhokama qilib, o`qituvchining rahbarligida malum bir bilim va malakalarga ega bo`lishligi nazarda tutiladi.



8. Germaniyada musiqa o`qitishning o`ziga xos xususiyatlari

Germaniyaning yirik nemis kompozitori va buyuk pedagogi Karl Orf (1895-1982) jahonda keng tarqalgan bolalar musiqiy tarbiya uslubiyotining asoschilaridan biri hisoblanadi. Jak-Dalkrozning o`quv tizimiga asoslanib Karl Orf “Oddiy musiqa” (elementar musiqa) g`oyasini ishlab chiqdi va bu g`oyani Myunxendagi (Gyunter maktabi) gimnastika va raqs maktabidagi o`qitish uslubiga aylantiradi. 1953 - yilda Avstriyaning Zaltsburg shahrining Motsarteum deb nomlangan musiqa dargohida Karl Orf instituti tashkil topib, u Amerika Qo`shma Shtatlari (AQSh), Angliya,

Germaniya, Hindiston kabi 30 dan ortiq mamlakatlarni birlashtirgan baobro` ilmiy muassasaga aylanib ketdi.

Karl Orf nomidagi institutda 400 dan ortiq o`quvchi, 50 dan ziyod pedagog ta`lim oladi. Karl Orf kashf etgan bolalar va o`smirlar musiqiy tarbiya usuli o`quvchilarning musiqiy folklordan keng miqyosda foydalanishi, ularning ijodiy ko`nikma va imkoniyatlarini rivojlantirishga asoslangan.

Ushbu o`quv usuli tamoyillari xalqaro ahamiyatga ega bo`lgan "Shulverk" to`plamida o`zining badiiy metodik talqinini topdi. Besh jildlik "Shulverk" uslubiy qo`llanmasi, asosan umumta`lim maktablari va bolalar muassasalaridagi 4 yoshdan -16 yoshgacha bo`lgan bolalar uzluksiz musiqiy ta`lim - tarbiyaga mo`ljallangan.

Germaniyada maktab ta`limi majburiy va bepul. 6 yoshdan 18 yoshgacha fuqarolar majburiy tartibda ta`lim olishi shart. Maktab ta`lim tizimi quyidagi bosqichlarga bo`linadi:

-**boshlang`ich** (*primarstufe*),

-**o`rta** (*sekundarstufe I*)

-**yuqori** (*sekundarstufe II*)

«Tafakkur ustaxonasi»

Germaniyada maktabgacha ta`lim muassasalari davlat tizimiga kirmaydi. Bolalar bog`chasi xayriya jamg`armalari, mahalliy hokimiyat hamda cherkov vasiyligida faoliyat yuritadi. Shu bilan birga korxonalar va tashkilotlar ham o`z bog`chasiga ega bo`lishi mumkin. **Maktabgacha ta`lim tizimi** (*elementarbereich*) 3 yoshdan olti yoshgacha bo`lgan bolalarni qamrab oladi.

Boshlang`ich maktabga bolalar 6 yoshdan qabul qilinadi. O`qish asosan 4 yil, Berlin va Brandenburgda esa 6 yil davom etadi. Dastlabki 2 yil mobaynida o`quvchilar baxolanmaydi. Uqituvchilar baho o`rniga bolaning individual rivojlanish holati xususida hisobot tayyorlaydi va o`zlashtirish tavsifnomasi beriladi. O`quvchilarga 3-sinfdan baho qo`yila boshlaydi.

5-6 sinflar bolalarning rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Bu bosqichda bolalar keyingi ta`lim turiga yo`naltirilishi uchun kuzatuvda bo`ladi. Bolaning boshlang`ich sinflardan keyin qaysi maktab turida o`qishni davom ettirishi

boshlang'ich maktab tavsiyasi, uning o'zlashtirishi hamda ota-onasining xohishlariga bog'liq.

Germaniyada 6 ballik baholash tizimi qabul qilingan. Uquvchilar fanlarni eng kamida «4»ga o'zlashtirishi kerak. Boshlang'ich bosqichda bolalarga **matematika, nemis tili, tabiatshunoslik, musiqa, estetika fanlari** o'tiladi.

Asosiy maktablarda oliy ta'lim muassasalarida o'qish niyati yo'q bo'lgan, biror bir kasb etagidan tutishni ko'zlagan o'quvchilar ta'lim oladi. Bu turdagi maktablarda bazaviy bilimlar beriladi va asosiy e'tibor amaliy mashg'ulotlarga qaratiladi. Asosiy maktabni tugatgan o'smirlar tugallanmagan o'rta ta'lim haqida shahodatnoma oladi. Ushbu hujjat bilan kasb-hunar maktablari (berufsschule yoki proffesionalschule)ga kirish mumkin. Bizdagi KXKlariga o'xshab ketadigan mazkur maktablarda talaba muayyan kasb-hunar bo'yicha bilim va tajriba oshiradi.

Xulosa

Dunyo hamjamiyatining hozirgi rivojlanish bosqichida o`sb kelayotgan yosh avlodning ma'naviy madaniyatini shakllantirish dolzarb vazifalardandir. Bu dolzarb vazifa dunyo va shu jumladan, MDH davlatlaridagi barcha musiqa ta'lim bilan bog'liq kompozitor, pedagog va musiqashunoslarni o`ylantirib kelmoqda. Dunyoning juda ko`p mamlakatlarida bolalarga musiqiy tarbiya berish, musiqa san'ati yordamida har tomonlama mukamal rivojlangan shaxsni shakllantirishda boy tajriba orttirilgan. Qator mamlakatlarda maktab hamda maktabdan tashqari tashkil qilingan o`quv jarayoni uning shakl va usullari shubhasiz katta qiziqish uyg'otmoqda. Jahonning ko`pgina mamlakatlarida yosh avlodga musiqiy tarbiya berish ishlari umumdavlat ahamiyatiga ega bo`lib, shaxsni shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Qator mamlakatlarda maktab hamda maktabdan tashqari tashkil topgan o`quv jarayoni, uning shakl va usullari shubhasiz, katta qiziqish uyg'otmoqda. Jahonning ko`pgina mamlakatlarida yosh avlodga musiqiy tarbiya berish ishlari umumdavlat ahamiyatga ega bo`lib, shaxsni shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim tarbiya – shaxsni ma'naviy tomondan rivojlantirish va etik tamoyillarni shakllantirish va rivojlantirish, o`quvchi shaxsining o`z o`rnini o`zi belgilashi va hayotga tadbiiq qilishi uchun sharoit yaratib, san'atning axloqiy salohiyatlaridan shaxsning etik tamoyillari va ideallarini shakllantirish va rivojlantirish vositasi sifatida yana ham to`laqonliroq foydalanish orqali va ta'limni tubdan o`zgartirgan holda tarbiyalash vazifasini qo`ydi.

Yevropa, Amerika va Osiyo mamlakatlaridagi musiqiy tarbiya shakl va tizimlarini tahlil qilib, ham ijobiy, ham salbiy tomonlari haqida xulosa chiqarish mumkin. Ijobiy tomonlardan quyidagilarni ko`rsatish mumkin: musiqa materialining asosi sifatida xalq musiqasidan keng foydalanish; musiqa uquvi, ritm, xotirani rivojlantirish, musiqa savodxonligini oshirish yuzasidan ommabop usullarni tadbiiq etish, musiqa o`qituvchilarining pedagogik tarbiyasiga jiddiy e'tibor berish, o`qituvchilar musiqiy tayyorgarligining maqsadga muvofiq usullarini qidirib topish, ta'limda texnik vositalaridan keng miqyosdan foydalanish

va h.k. Xorijdagi musiqiy tarbiya sohasidagi salbiy holatlar, ziddiyatlar, asosan, musiqa o`qituvchilarning tayyorlash jarayonida, shuningdek, umumta`lim maktablarda yagona o`quv rejalari va dasturlarining yo`qligida namoyon bo`lmoqda.

Hozirda, ISME dan tashqari, konservatoriya va musiqa akademiyalarining Evropa Assotsiatsiyasi va Umumjahon xor federatsiyasi tashkil qilingan. Ushbu xalqaro tashkilotlar faoliyatida qatnashish yurtimizning musiqa pedagogikasi, musiqiy tarbiya nazariyasi va amaliyotining bundan keyinga rivojlanishi va mukammallashuvi uchun zarur bo`lgan ilg`or uslubiyotni egallashda muhim o`rin tutadi.

Ko`pgina davlatlarda bolalar musiqa tarbiyasi bo`yicha katta tajribalar to`plangandir. Albatta, o`zaro hamkorlik davlatlaridagi kabi chet ellardagi maktab va maktabdan tashqaridagi ishlar, musiqa tarbiyasi jarayonini tashkil qilish ishlari katta qiziqish uyg`otadi.

Zamonaviy ta`limning strategik yo`nalishlari ta`lim jarayonida har bir xududning o`ziga xos xususiyatlaridan foydalanishdir. Regionlashtirish madaniy, tarbiyaviy va ma`naviy ahloqiy vazifalarni echish sharti va vazifasidir. Maktabda musiqiy ta`limini xududlashtirish, o`quvchilarda milliy madaniyatga bo`lgan qiziqishlarini oshirish shartlaridan biridir. Lekin ushbu vazifani echishdagi muammo, bu musiqa o`qituvchisining madaniy an`analar va tarixiy o`tmish haqida etarli ma`lumotlarga ega emasligidir.

Jahon musiqiy tarbiya tizimi bugun izlanishlar bosqichidadir. Unda mavjud bo`lgan turli maqsad va vazifalarga qaramasdan musiqa tarbiyasining umumiy tomonlarini ham ko`rsatish mumkinki - uning asosini ijodiy va asosan jamoaviy (ommaviy) musiqa ijrosi tashkil etadi.

Bolalar musiqa tarbiyasining MDH va chet ellardagi eng yangi usullari bilan tanishish, tajriba almashish, uchrashuv, seminar, anjumanlar, bolalar xor jamoalari ko`riklarini o`tkazish va boshqa chora - tadbirlar bolalar musiqa ta`limi va tarbiyasi sohasining jadal rivojlanishga olib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Apraksina O.A. Metodika muzikalnogo vospitaniya v shkole. M., 1983 g
2. Dmitrieva N.G., Crernoivanenko O.«Metodika muzikalnogo vospitaniya v shkole» M.,1990 yil
3. Koday Z. Izbrannie stati. M.,1982
4. Kerven D.J. Angiliya “Tonik – sol - fa”tizimi. Solfedjio
5. Lashenko. Xorovaya kultura kak predmet izucheniya. Kiev 1990
6. Myunnik R.Germaniya “Yalen” tizimi. Solfedjio. kushikchilik
- 7.Orf K. Germaniya-Avstriya “Musikali ijod” metroritmik ukuvini rivojlantirish
- 8.Sudzuki T.Yaponiya “Skripka ijrochiligiga o`rgatish orkali musiqiy malakalarini rivojlantirish”
9. Soipova D. Musiqa o`qitish nazariyasi va metodikasi. T., 2009 y.
- 10.Soipova D. Musiqiy-nazariy bilimlarni o`zlashtirish jarayonida shaxsini shakllantirish. 2006 y.
- 12.Trichkov B. Solfedjio. Bolgariya . 1999 g.
- 13.Sharipova G., Yakubova Sh. «Maktabgacha ta’lim muassasalarida musiqa o`qitish metodikasi». T., 2007 y.
- 14.Vulfson V.G. Sravnitel'naya pedagogika.-M.: “Prosvetshenie”, 2003.
- 15.Hoshimov K.H. Pedagogika tarixi. –T.: A.Navoiy nomidagi O`zb. milliy kutubxona nashr., 2005.
16. www.pedagog.uz
17. www.edu.uz